




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

	O‘zbek va qozoq tillaridagi “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarida qo‘llanilgan qarindoshlik ma‘nosini ifodalovchi so‘zlar.	
15	Mohinur USMONOVA, O‘zbek va qozoq xalq ertaklaridagi turg‘un birikmalarning qiyosiy tahlili	541
16	Hayotxon SALAYEVA, Gurlan (Xorazm) shevasida polizchilikka oid xalq leksikasi xususida	544
17	Mufassal PARDAYEVA, Go‘ro‘g‘li turkum dostonlarining dastlabki variantlarida Ahmad Sardor obrazi	547
18	Серик ТУРПАНАЛИЕВ, Қабдеш жұмаділов прозасындағы төл тілдің көркемдік сипаты	551
19	Amina DEHQONOVA, O‘zbek va nemis ertaklarida xalqona an‘analar	554
20	Dilrabo KOMILOVA, Yangibozor (Xorazm) shevasidagi kiyim-kechak savdo-sotig‘ida ishlatiladigan so‘zlar	558
21	Mohinabonu YUNUSOVA, Toshkent viloyati uyg‘ur shevalarining ayrim leksik xususiyatlari	561
22	Marjona MUSULMONOVA, Boysun tumani bog‘dorchilik leksikasi	565
23	Barchinoy TOSHPO‘LATOVA, Samarqand bolalar folklorining janrlar tarkibi	565
24	Moxlaroyim NAZAROVA, Halima Xudoyberdiyeva she‘riyatida etnografik folklorizmlarning badiiy-estetik talqini	574
25	Fotima KOMILOVA, O‘zbek-turk qarg‘ishlarning mifopoetik talqini	576
26	Shohsanam NOMAZOVA, Dostonlarda obrazlar tizimi masalasi va “Sanamgul” dostonidagi obrazlar	580
27	Muhtarama MAMITOVA, Oila mavzusi bilan bog‘liq ayrim o‘zbek va turk maqollarining tipologik tahlili	583
28	Lobar QULDASHEVA, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodidan foydalanishning pedagogik ahamiyati	587
29	Sunbula HABIBULLAYEVA, “Shirin va Shakar” dostonida fonetik dialektizmlarning o‘rni (qo‘llanishi)	590
30	Nilufar TURG‘UNOVA, Sirdaryo viloyatidagi Andijon shevalarining fonetik morfologik xususiyatlari	594
31	Sarvinov RAXIMOVA, G‘ijduvon sandiqsozlik so‘zlari	597
32	Aziza ELMIRZAYEVA, Usmon azim lirikasida folklor va badiiy ko‘chim uyg‘unligi	599
33	Diyora NE‘MATOVA, Folklorida til va leksika masalasi: lingvofolkloristik tadqiqotlar tarixi, nazariy asoslari va zamonaviy yondashuvlar	605
34	Hanifa XODJIYEVA, Mavsumiy marosimlar tasnifi	611
35	Husniddin AZIMJONOV, Tarixiy haqiqat va badiiy talqin uyg‘unligida bilga xoqon obrazi	614
36	Sitora O‘KTAMOVA, Hajv tushunchasining etimologiyasi va falsafiy-estetik mohiyati	617

OILA MAVZUSI BILAN BOG'LIQ AYRIM O'ZBEK VA TURK
MAQOLLARINING TIPOLOGIK TAHLILI

TYOPOLOGICAL ANALYSIS OF SOME UZBEK AND TURKISH ARTICLES
RELATED TO THE TOPIC OF FAMILY

Muhtarama MAMITOVA,
TOSHDOTAU magistranti

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MIXJ3303

Annotation. *This article investigates the reflection of the family institution, a high socio-spiritual value in the culture and lifestyle of Turkic peoples, within the paremiological system. Through a comparative lens, the study examines the expressive characteristics of family values in Uzbek and Turkish folk proverbs. The paper highlights the conceptual symmetry and semantic laconicism encoded in these paremies based on cognate linguistic data.*

Keywords: *paremiology, proverb, family, laconicism, comparative analysis.*

Maqollar – xalq og'zaki ijodining eng ko'hna shakllaridan biri bo'lib, xalqning tafakkuri, dunyoqarashi, necha ming yillik kechinmalari-yu xulosalarini o'zida aks ettiruvchi janr hisoblanadi. “Maqol deb xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy-maishiy tajribasi umumlashgan badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so'zlarga aytiladi”. [Madayev O., 2010, 64] Ta'bir joiz bo'lsa, insoniyat o'tmishdan to hozirga qadar jamiyat holida hayot kechirgani, hamisha barqaror ijtimoiy aloqada bo'lgani va umuminsoniy qadriyatlarni davom ettirgani uchungina bugungi kungacha yetib kelgan. Bu davrlar mobaynida insoniyat turli xil sinovlar-u yaxshi-yomon kunlarni boshdan kechirgan va ulardan saboq chiqargan. Bu tajriba va saboqlarni esa kelajak nasllarga o'git berish va ogohlantirish maqsadida hikmatli so'zlarga ko'chirgan. Bu hikmatli so'zlar maqollardir. Har bir xalq asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba to'playdi, shu tajribani turli vositalar bilan kelajak avlodlarga meros qilib qoldiradi. Maqol va hikmatli so'zlar ana shunday bebaho ma'naviy merosimiz hisoblanadi. Insoniyat yaralibdiki, yer yuzida necha ming yillardan beri to'da holida yashab kelmoqda. Bu davr mobaynida juda uzoq tarixni boshdan kechirishgan va ayni paytda jamoa holida yashash va jamiyat tushunchalari ham shakllangan. Jamiyatni tashkil qiluvchi eng kichik parcha hisoblanadigan oila ijtimoiy guruhlar orasida eng muhimi va sobit qoluvchirog'i hisoblanadi.

Inson ma'lum bir jamiyatda dunyoga keladi, o'sib-ulg'ayadi, vafot etadi. Umrning ushbu jarayonlarida inson o'zi tug'ilib-o'sgan jamiyatda turli rol va maqomlarni egallaydi. Ba'zan oilada, ba'zan ish hayotida va hokazo. Ular qabul qilgan bu rollar jamiyat, madaniyat va qadriyatlar tomonidan shakllantiriladi va butun umri davomida davom etadi. Bu rollarning eng muhimi oila ichidagi roldir.

Turkiy xalqlarning oila tushunchasi bilan bog'liq xalq maqollarida oila bilan birgalikda ayni paytda uy, ro'zg'or so'zlari ham qo'llaniladi. O'zbek xalqi azal-azaldan qo'llab kelayotgan “**Uying tinch – yurt tinch**” yoki turk xalq og'zaki ijodidagi “**Evi ev eden avrat, yurdu sen eden devlet**” singari maqollarida oila bilan davlat o'rtasidagi o'zaro munosabat nuqtayi nazaridan yuqorida aytilgan fikrlarning yaqqol tasdig'ini ko'rish mumkin. “O'zbek xalq maqollari” to'plamida “Oila va qo'shnichilik” mavzusida jami 259 ta, “Farzand va farzandsizlik” mavzusida esa 154 ta maqol jamlangan. [O'zbek xalq maqollari, 2013]

Turkiy xalqlar madaniyati, turmush tarzida oilaga muqaddas qadriyat sifatida qaraladi va unga alohida e'tibor beriladi. Oila qadim-qadimdan vatanga, millatga munosib avlodlar yetishtiriladigan qo'rg'on sifatida ko'rilgan. Ikki qardosh xalq – o'zbek va turk madaniyatida ham o'g'il farzandlar maktabni tamomlagach, ma'lum muddat harbiy xizmatni o'tashi, xohlasa, oliy

ta'limda o'qib, undan so'ng esa ish topib, oila qurishi zimmasiga yuklatiladi. Qiz farzand yetishtirish borasida ham o'ziga xos an'analar mavjud. Qiz bola bo'yi yetgach, yorug' yuz bilan uzatish necha ming yillardan buyon ota-bobolarimiz tomonidan bizgacha yetib kelgan muqaddas an'ana hisoblanadi. O'zbek va turk xalq paremiologik fondida maqollarida qiz farzandning oiladagi o'rni va uning turmushga uzatilishi bilan bog'liq ijtimoiy-psixologik dinamika o'ziga xos tarzda ifodalangan. Xususan, har ikki xalq dunyogarashida qiz bolaning oiladagi maqomi "vaqtincha mehmon" va "nasl davomiyligini ta'minlovchi elchi" tushunchalari bilan tavsiflanadi.

Maqollarda qiz bolani uzatish jarayoni shunchaki oilaviy tadbir emas, balki qizning bir ijtimoiy strukturadan (ota uyi) ikkinchi bir ierarxik tizimga (er uyi) o'tishidagi moslashuv davri sifatida tahlil qilinadi. **"Bo'y qiz – uchirma qush"** maqoli tag zamirida ham aynan mana shunday ma'no-mazmun mujassam.

O'zbek va turk maqollarida oila shunchaki birga yashaydigan odamlar guruhi emas, balki qat'iy ierarxiyaga ega bo'lgan ijtimoiy tuzilma sifatida ko'riladi. Ikki qardosh xalq maqollari ierarxik bo'g'inida ham asosiy o'rinda turuvchi shaxslar ota-ona hisoblanadi. Kattalarga, xususan, ota-onaga hurmat oilaviy qadriyatlarning ustuni bo'lish bilan birga ayni paytda qadim-qadimdan xalq maqollarida ham o'z aksini topgan.

"Ota-onasini tanimagan tangrisini tanimas".

Turkcha ekvivalenti: **"Atasini tanimayan Allah'ı tanımaz".**

Ushbu maqollar har ikki tilda ham ma'naviy jihatdan ekvivalent hisoblanadi. Ularda ota-ona bilan bog'liq munosabat e'tiqodiy masala bilan solishtirilganiga guvoh bo'lish mumkin. Bu esa insonning ma'naviy-axloqiy darajasini belgilovchi asosiy mezon sifatida ko'rsatilgan. O'zbek maqolida ham ota, ham ona tushunchasi yonma-yon qo'llangan bo'lsa, turk maqolida faqatgina ota so'zi bilan ifodalangan.

"Ota rozi – Xudo rozi".

Turkcha ekvivalenti: **"Ata hakkı, Tanrı hakkı".**

Ushbu maqollar semantikasida ham yuqoridagi holat deyarli takrorlangan deyish mumkin. Ya'ni ikkala maqolda ham insonning Yaratuvchi oldidagi burchi, roziligi ota-ona oldidagi burchi orqali belgilanishi ta'kidlangan. Shuningdek, ularda lisoniy farqlar ham mavjud bo'lib, o'zbek maqolida "Xudo" va rozi so'zlari, turk maqolida esa "hak" (haq) va "Tanrı" (Tangri) so'zlari vositasida leksik variativlik namoyon bo'lgan. Aslini olib qaraganda, haq va rozilik tushunchalari ikkisi ham o'zida salmoqli ko'lamni qamrab olgan.

"Olti kun och qolsang ham otang odatini qo'yma".

Turkcha ekvivalenti: **"Ata yolu doğru yoldur".**

Har ikki maqolning zamirida bir xil: otaning yo'li eng to'g'ri va sinalgan yo'l degan falsafa yotibdi. Ammo bu yerda o'zbek va turk xalqlarining maqol qurilishi, metaforalardan foydalanishdagi farqi ko'zga tashlanadi. Xususan, o'zbekcha variantda "otaning odati" o'z ma'nosida qo'llangan bo'lsa, turkcha muqobilda bu ifoda "yo'l" metaforasi orqali namoyon bo'lgan. Shuningdek, turkcha variantda qisqalik, lo'ndalik yetakchilik qilgan, ya'ni ortiqcha tasvirlarsiz, to'g'ridan to'g'ri hukm chiqarilgan. Bu turk paremiyalariga xos bo'lgan lakonizm namunasidir. Pirovardida, "odat" va "yo'l" ifodalari mazmunida nozik farq ham seziladi. O'zbek maqolida "odat" so'zi orqali ko'proq xulq-atvor va tarbiya ifodalangan bo'lsa, turk maqolidagi "yo'l" so'zi orqali hayotiy tamoyillar nazarda tutilgan.

O'zbek va turk oila mavzusidagi maqollarda xotin, ayol muhim kontekstda turishini ta'kidlash joiz. Zero oilada xotinning roli beqiyosligi hech kimga sir emas. Pirovardida, buning ikkala xalq maqollarida ham o'z aksini topganini kuzatish mumkin.

"Xotin – umr yo'ldoshi" yoki "Xotin – uyning chirog'i".

Turkcha ekvivalenti: **"Kadın erkeğin eşi, evin güneşidir".**

Xotin haqida gap ketarkan, o'zbek maqollarida u ijobiy yoxud salbiy ottenkada tasvirlanarkan, oldidan yaxshi yoki yomonligini ifodalovchi vosita qo'llanib, shu orqali yaxshi va yomon xotin bir-biriga solishtiriladi.

“Xotin – erga oyina”, “Xotin – urning vaziri”, “Xotin yaxshi – er yaxshi”, “Xotining yaxshi bo‘lsa, to‘yga bormoq ne hojat, Xotining yomon bo‘lsa, azaga bormoq ne hojat”.

Turk maqollarida esa, aksincha, salbiy ko‘lam kasb etgan o‘rinlarni ham uchratish mumkin.

“Kadının bir akli, erkeğin dokuz akli vardır” (Xotinning aqli bitta, erniki to‘qqizta.), **“Avrattan vefa, zehirden şifa”** (Xotindan vafo kutish zahardan shifo kutish bilan barobar.), **“Kadın şerri şeytanın şerrine eşittir”** (Xotinning sharri shaytonniki bilan teng.), **“Avradın kazdığı kuyudan su çıkmaz”** (Avratning (Xotinning) qazigan qudug‘idan suv chiqmas.) singari maqollarning ba‘zisi ko‘chma ma’noda, ayrimlari o‘z ma’nosida bo‘lib, ularda yuqoridagi mazmun ifodalangan.

Oila qadriyatlari tizimida farzand – oila daraxtining mevasi va kelajak garovi sifatida ko‘riladi. Oila muhitida farzandning qanday tarbiya ko‘rgani uning kamolga yetishuvida yoxud aksincha zalolatga yuz burishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyaviy, pand-nasihat ruhidagi maqollar har ikki qardosh millat folklorida ham yetakchi o‘rin egallaydi.

O‘zbek va turk xalq maqollarida oila qurish jarayoni faqat ikki shaxsning birlashishi emas, balki ikki naslning tutashuvi sifatida talqin etiladi. Xususan, **“Onasini ko‘rib qizini ol”** va uning turkcha muqobili bo‘lgan **“Anasına bak, kızını al, kenarına bak, bezini al”** kabi paremiyalar zamirida chuqur ijtimoiy-biologik va pedagogik qonuniyatlar yotadi. Xalq dunyoqarashida qiz bola uchun ona asosiy va yagona “ijtimoiy model” hisoblanadi. Maqollarda onaning xulq-atvori, ro‘zg‘or tutishi va ma’naviy qiyofasi qiz farzandga avtomatik ravishda o‘tishi ta’kidlanadi. Ya’ni qiz bola onasidan ko‘rgan oilaviy munosabatlar modelini o‘zining bo‘lajak oilasiga ko‘chirib o‘tkazadi. **“Qiz bersang, otasiga qarab ber, qiz olsang, onasiga qarab ol”** maqoli ham ushbu fikrning yaqqol dalilidir. E’tibor qaratilsa, oilada tarbiyaga oid maqollarning asosiy bo‘g‘inida ona yetakchilik qiladi. Misol uchun, **“Bola – loy, ona – kulol”, “Otasi tentakning birisi – tentak, onasi tentakning bari – tentak”** singari maqollarda asosiy urg‘u onaga qaratilmoqda va bu shunchaki tasodif emas. Xalq dunyoqarashida bola dunyoni onaning nigohi va tili orqali taniydi. Ota ko‘pincha tashqi dunyo bilan band bo‘lgani uchun oilaning ichki ma’naviy muhitini ona shakllantiradi. Shu orqali onaning oilaviy muhitda farzand tarbiyasida dominantlik roli yuzaga chiqadi. Ayni holatni turk maqollarida ham kuzatishimiz mumkin: **“Alma soysuzun kızını, sürer anası izini”**. (Boshqa varianti – **Alma kahpe kızını, o da sürer anasının izini.**), **“Pervaneyi bozan yapragı, kızı bozan anasıdır”**.

Oila barpo etilgach, er va xotin o‘rtasidagi munosabatlar asosiy o‘ringa chiqadi:

“Er – avra, xotin – astar”. Bu maqolga turk paremiyasidagi mazmunan nisbatan yaqin maqol sifatida **“Bir adamın karısı onun yarısıdır”** tanlandi. Negaki har ikki maqolda ham er va xotin o‘rtasidagi dual birlik hamda o‘zaro to‘ldiruvchanlik tamoyili asoslangan.

“O‘g‘limning ilik oshidan erimning urgan toshi yaxshi”.

Turkcha muqobili: **“Baba/oğul ekmeği zindan ekmeği, koca ekmeği meydan ekmeği”**. Har ikki maqolda ham ayol kishining oiladagi ijtimoiy-iqtisodiy mavqeyi hamda psixologik erkinligi bevosita uning turmush o‘rtog‘i bilan bog‘liqligi ifodalangan. O‘zbek maqolida bu hodisa konseptual zidlanish, ya’ni o‘g‘il bergan tansiq taom (ilik oshi) minnat evaziga kelishi mumkinligi, urning qattiqqo‘lligi (urgan toshi) esa ayol uchun boshqalar oldida boshni egmaydigan ijtimoiy himoya ekanligini ifodalaydi. Turk maqolida esa xuddi shu mazmun **“Zindan ekmeği”** va **“meydan ekmeği”** metaforalari orqali ochib berilgan.

“Erni er qiladigan ham xotin, qaro yer qiladigan ham xotin”.

Turkcha muqobili: **“Kadını yeşil yaprak eden de kocası, kara toprak eden de kocası”**.

Ushbu paremiologik juftlikda yuqoridagi misollardan farqli ravishda obyekt va subyekt rollari o‘zaro o‘rin almashgan. Ya’ni o‘zbek maqolida ta’sir obyekti xotin bo‘lsa, turk maqolida ta’sir obyekti (koca) erga ko‘chgan. O‘zbek maqolida birinchi banddagi **“erni er qilish”** birikmasi orqali ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy yuksalish mazmuni yuzaga kelgan bo‘lsa, turk maqolida **“yeşil yaprak etmek”** metaforik birikmasi orqali ifodalangan. Ikkinchi banddagi **“qaro yer”** va semantik ma’nosi deyarli bir xil bo‘lgan **“kara toprak”** ifodasi qo‘llangan.

Yuqoridagi maqollar haqida gap ketarkan, ularning ayrimlari analogik maqollar bo‘lsa (ya’ni shakl va mazmun jihatdan bir-birini aynan takrorlagan), ayrimlari sinonimik maqollardir. Ahamiyatlisi shundaki, har ikkala xalq maqollarida ham ota-ona, xususan, “ota” tushunchasiga nisbatan hurmat-ehtirom qadriyati yuqori darajada ekanini sezish mumkin. Bu qadriyat ota-bobolarimiz qoniga minglab yillardan beri singib ketgan. Turkiy xalqlarning dastlabki yozma manbalaridan biri sanaladigan O‘rxun-Enasoy obidalarida ota-onaga bo‘lgan ehtirom namunasini ko‘rish mumkin: “Turk xalqi yo‘q bo‘lmasin deb, xalq bo‘lsin deb, otam Eltarish xoqon va onam Elbilga xotunni osmonning yuqorisida tutib, yanada tepaga ko‘tardilar”, mazmunidagi parcha ham yuqoridagi fikrimizning tasdig‘idir. [Talat Tekin, 1998, 65]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aksoy Ö., Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü, İnkilap Yayınları, 1965.
2. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010.
3. O‘zbek xalq maqollari. Tuzuvchilar: Mirzayev T., Musaqulov A., Sarimsoqov B. – Toshkent: Sharq, 2013.
4. Talat Tekin, Orhun Yazıtları: Kül Tigin, Bilge Kağan, Tunyukuk, Simurg Yayınları, – İstanbul, 1998.
5. Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Ҳикматнома. Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзб. Совет Энциклопедияси Бош редакцияси, 1990.